SIRDARYO VILOYATI GULISTON SHAHAR HOKIMINING

QARORI

2024-yil 31-oktabr | 352-9-130-Q/24 | Guliston shahar hokimligi

Guliston shahrida 2025-yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993 yil, 9-son, 320-modda)ning 6, 25-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-maydagi PQ-3001-son “O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to′g′risida”gi Qarori va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarorlari bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muxtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom, Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi PQ-401-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrdagi 705-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Aholining ijtimoiy himoya olish huquqlarini ta’minlash hamda davlat ijtimoiy yordami va hizmatlarini ko‘rsatish tizimini takomillashtirish munosabati bilan ayrim hukumat qarorlariga o‘zgatirish kiritish to‘g‘risida”gi Qarorga asoslanib, Guliston shahrida 2025-yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish maqsadida.

QAROR QILAMAN:

1. “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 39-moddasiga asosan ijtimoiy muhofazaga muxtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida Guliston shahrida mavjud korxona, muassasa va tashkilotlar xodimlarining ro‘yxati bo‘yicha o‘rtacha sonidan (4628 nafardan) 148 ta ish o‘rnini tashkil etadigan 7 foiz miqdoridagi, jumladan:

o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek ko‘p bolali oilalarning ota-onalar uchun 0,5 foiz (16,5 ta ish o‘rni);

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar, “Mehribonlik” uylarining bitiruvchilari, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun 1.0 foiz (21,5 ta ish o‘rni);

nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun 3 foiz (45,5 ta ish o`rni);

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyasining, Davlat xavfsizlik xizmatining qo‘shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun 0.5 foiz (12 ta ish o‘rni);

pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun 0.5 foiz (9,5 ta ish o`rni);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko‘ra o‘ziga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun 0.5 foiz (13,5 ta ish o‘rni);

Odam savdosidan jabrlanganlar uchun 0,5 foiz (14,5 ta ish o‘rni); atrofdagilar uchun xavf tug‘dirmaydigan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar uchun 0.5 foiz (13 ta ish o`rni);

Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik natijasida jabrlanganlar 0.3 % (2 kishi) miqdorida ish o‘rinlari zaxirasini belgilaydi.

2. Qarorning 1-bandida ko‘rsatilgan talablarga javob beradigan kasb va mutaxassisliklar bo‘yicha 2025 yilda ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar uchun band qilib qo‘yilgan ish joylarini barpo etish vazifasi yuklatilgan tashkilotlar, korxona va muassasalar ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ushbu toifa shaxslar uchun ish o′rinlari xodimlar tomonidan o′zlarining mexnat majburiyatlarini to′siqlarsiz bajarishini ta′minlaydigan sanitariya gigiena normalari va mexnat sharoitlariga muvofiq bo′lishi kerak.

Shu jumladan:o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek ko‘p bolali oilalarning ota-onalari uchun;

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta′lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar uchun;

“Mehribonlik” uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta′lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta′lim olgan bitiruvchilari uchun;

nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun;

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyasining, Davlat xavfsizlik xizmatining qo′shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun;

pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko‘ra o‘ziga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun;

Odam savdosidan jabrlanganlar uchun;

atrofdagilar uchun xavf tug‘dirmaydigan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar uchun; Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik natijasida jabrlanganlar uchun ish o‘rinlari zaxirasini belgilaydi.

Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limida ish qidiruvchi sifatida hisobda turgan pensiya yoshiga yaqinlashib qolgan shaxslar uchun maxsus malakani talab qilmaydigan ish o‘rinlari;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan, jazoni o‘tayotgan yoki sud qarori bilan tibbiy harakterdagi majburiy choralar ko‘rilgan shaxslar uchun ularning kasb bo‘yicha tayyorgarligi hisobga olingan holdagi ish o‘rinlari, muayyan kasb-hunarga, malakaga ega bo‘lmagan shaxslar uchun esa maxsus malaka talab qilmaydigan hamda yuqorida ko‘rsatilgan barcha toifalar uchun mos sharoitlar yaratilishi lozim.

Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar ish joylarining eng kam miqdori (kvota) bo‘yicha ish o‘rinlarini tashkil etilganligi to‘g‘risida ma′lumotlarni har chorakda, ushbu

o‘rinlarga ishga joylashganligi to‘g‘risidagi ma’lumotni har oyning 25 sanasiga qadar shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga topshirsinlar.

4. Ish o‘rinlarini band qilib qo‘yiladigan kasblar va lavozimlar:

qarorning 1-bandi 2-xat boshida ko‘rsatilgan talablarga javob beradigan kasb va mutaxassisliklar bo‘yicha korxonalar, muassasalar va tashkilotlar kesimidagi ish o’rinlari ko‘rsatilgan holdagi miqdorda **ilovaga** muvofiq tashkil etilsin.

5. Tashkilot, korxona va muassasalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qaroriga asosan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mexnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o’rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq ijtimoiy muhofazaga muxtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun ko‘rsatilgan ish o’rinlarini belgilangan muddatlarda va tartibda barpo etilishini ta’minlasinlar.

6. Ushbu qaror bajarilmagan taqdirda tashkilotning mansabdor shaxslariga nisbatan qonunchilikda belgilangan jarimaga tortilish to‘g‘risida ogohlantirilsin.

7. Ushbu qarorda belgilangan ijtimoiy himoyaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish sonidan ortiqcha, shu jumladan ish uchastkalari (tsexlar) tashkil etish uchun turar joy bo‘lmagan binolarni birinchi navbatda ajratish:

mahalliy davlat hokimiyatiga berilgan vakolatlar doirasida qonunda beliglangan tartibda boshqa imtiyozlar berilishi mumkinligi belgilansin.

8. Guliston shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo’limi besh kun muddat ichida mazkur qarorni ilovada ko‘rsatilgan korxonalar, tashkilotlar va muassasalari rahbarlari e’tiboriga yetkazish:

O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko’maklashish Davlat jamg’armasi mablag’lari hisobidan subsidiya va garantlar ajratish tartibi to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash haqida”gi Adliya Vazirligidan 2019-yil 31-maydan 3163-son bilan ro‘yxatdan o’tkazilgan buyrug’iga asosan ijtimoiy extiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan ish o’rinlari sonidan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga xar bir xodim uchun 12 oy davomida xar oyda eng kam oylik ish haqining 2 baravari miqdorda haq to’lashni (subsidiyalar ajratib berish) amalga oshirsin.

9. Qaror matni hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

10. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish shahar hokimining birinchi o′rinbosari G‘.Botirov xamda Kambag′allikni qisqartirish va bandlikka ko′maklashish bo′limi boshlig′i A.G‘oybnazarov zimmasiga yuklansin.

11. Guliston shahar hokimining 2023-yil 30-oktyabrdagi “Guliston shahrida ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o′rinlarini 2024-yil uchun band qilib qo‘yish to‘g‘risida”gi 328-9-130-Q/23-sonli qarori 2024-yil 31-dekabrdan o′z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

12. Mazkur qaror rasmiy nashrda e′lon qilingan kundan e′tiboran ikki oy o‘tgach 2025-yil 1-yanvardan kuchga kiradi.

Shahar hokimi **J.Xodjimanov**

Guliston shahar hokimining
2024-yil 31-oktabrdagi
352-9-130-Q/24-son qaroriga
1-ilova
Guliston shahar hokimining
2024-yil “__” oktyabrdagi
_____
sonli qaroriga ilova

2025 yilda Guliston shahri bo‘yicha ijtimoiy himoyaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobat qila olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilib qo‘yilgan ish joylarini barpo etish vazifasi yuklatilgan tashkilotlar, korxona va muassasalar bo'yicha ma'lumot

T/p	Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini belgilash taklif etilayotgan tashkilotlar ro‘yhati	Tashkilotning STIRi	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlarning umumiy soni	Kelgusi 2025 yilga jami	Kelgusi 2025 yilga nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun(3%)	Kelgusi 2025 yilga o‘n to‘rtyoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz ota yoki ona, shuningdek ko‘p	Kelgusi 2025 yilga O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulotda vaziyatlar vazirligining, Milli	Kelgusi 2025 yilga umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hu narkollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab,	Kelgusi 2025 yilga pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun (0,5%)	Kelgusi 2025 yilga jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qarorigako‘ra o‘zigа nisbatan tibbiyo‘sindagi majburlov choralari qo‘lla	Kelgusi 2025 yilga odam savdosidan jabrlanganlar uchun 0,5%	Kelgusi 2025 yilga atrofdagilar uchun xavf tug‘dirmaydigan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar uchun (0,5%)	oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik natijasida jabrlangan shaxslar uchun(0.3%)

						bolali oilalarning ota-onalari uchun (0,5%)	y gvardiyasining, Davlat xavfsizlik xizmatining qo‘shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilganlar uchun (0,5 %)	kasbga ega bo‘lgan yoshlar,”Mehribonlik” uylarining bitiruvchilari, shuningdek, oliy ta’ lim muassasalari ning davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun (1,0%)		nilgan shaxslar uchun (0,5 %)			
1	"Guliston Davlat Universiteti"oliy va o'rta ta'lim muassasi	200322757	1179	30,0	5,0	6,0	0,0	0,0	0,0	6,0	6,0	6,0	1,0
2	Guliston shahar maktabgacha va maktab ta`limi bo`limi	200322417	45	1,0	0,0	0,0	0,0	1,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0

3	Sirdaryo viloyat sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatining guliston shahar bo'limi	200322607	36	1,5	0,0	0,5	0,5	0,5	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
4	9-sonli maktabgacha ta'lim muassasasi	202277241	61	2,5	0,5	0,0	0,5	0,5	0,5	0,0	0,5	0,0	0,0
5	Guliston shahar 2-son bolalar musiqa va san'at maktabi	202581023	48	1,5	0,5	0,0	0,0	0,5	0,5	0,0	0,0	0,0	0,0
6	Guliston shahar 4-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi	203328833	77	2,5	1,0	0,0	0,5	0,0	0,5	0,0	0,5	0,0	0,0
7	Sirdaryo viloyati guliston shahar 7-sonli ayrim fanlar chuqur o`qitiladigan sinflari mavjud umumiy o`rta ta`lim maktabi	203461772	90	5,0	2,0	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0,0	0,5	0,0
8	Guliston shahar 9-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi	206869902	65	2,5	1,0	0,5	0,5	0,5	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0

9	O`zbekiston respublikasi maktabgacha va maktab ta`limi vazirligi huzuridagi ixtisoslashtirilgan ta`lim muassasalari agentligi tizimidagi guliston shahar 1-son ixtisoslashtirilgan maktab-internati	200322804	82	4,5	1,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0,0	0,5	0,0
10	Guliston shahar obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish va irrigatsiya boshqarmasi	205817484	504	10,0	0,0	0,5	1,5	1,0	0,0	1,5	2,0	2,5	1,0
11	Guliston shahar 3-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi	206869934	61	3,0	1,0	0,5	0,5	0,5	0,5	0,0	0,0	0,0	0,0
12	Guliston shahar 14-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi	206869894	61	3,0	1,0	0,5	0,5	0,5	0,5	0,0	0,0	0,0	0,0
13	Guliston shahar 1- umumiy o`rta ta`lim maktabi	206869926	80	5,0	2,5	0,5	0,5	0,5	0,0	0,5	0,0	0,5	0,0
14	Sirdaryo viloyat barkamol avlod bolalar maktabi	206996594	37	1,5	0,5	0,5	0,0	0,5	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0

15	Guliston shahar 7-sonli davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	2070091 81	28	1,0	1,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
16	Guliston shahar 10-sonli davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	2070072 88	44	1,5	0,5	0,0	0,0	0,5	0,5	0,0	0,0	0,0	0,0
17	11-sonli davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	2070073 04	30	2,0	1,0	0,0	0,0	0,5	0,5	0,0	0,0	0,0	0,0
18	16-sonli davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	2070105 15	25	1,5	1,0	0,0	0,0	0,5	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
19	20-sonli maktabgacha ta'lim muassasasi	2070091 74	54	2,0	0,5	0,5	0,5	0,5	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
20	17-sonli maktabgacha ta'lim muassasasi	2070104 75	42	2,5	1,5	0,0	0,0	0,5	0,5	0,0	0,0	0,0	0,0
21	18-sonli davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	2070104 68	31	2,0	1,0	0,5	0,0	0,5	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
22	5-sonli davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	2070105 08	26	1,5	1,0	0,0	0,0	0,5	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
23	Sirdaryo viloyati guliston shahar 6-sonli davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	2070126 62	42	2,5	1,5	0,5	0,0	0,5	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0

24	Guliston shahar 4-sonli davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	207012654	38	2,5	1,5	0,0	0,0	0,5	0,5	0,0	0,0	0,0	0,0
25	Guliston shahar 19-sonli davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	207013154	30	2,0	1,0	0,0	0,0	0,5	0,5	0,0	0,0	0,0	0,0
26	Guliston shahar 14-sonli davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	207032227	25	1,5	1,0	0,0	0,0	0,5	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
27	3-sonli maktabgacha ta'lim muassasasi	207032281	30	2,0	1,0	0,5	0,0	0,5	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
28	Guliston shahar 1-sonli davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	207032298	34	1,0	0,0	0,5	0,0	0,5	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
29	Guliston shahar 15-sonli ixtisoslashgan davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	207033620	30	2,0	1,0	0,5	0,0	0,5	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
30	Guliston shahar sport maktabi	207128826	71	4,5	2,0	0,5	0,0	1,0	0,5	0,0	0,5	0,0	0,0
31	Sirdaryo viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi	302889901	23	1,0	1,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
32	Sirdaryo viloyati "toza hudud" davlat unitar korxonasi	304938711	347	3,5	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	1,5	2,0	0,0

33	Guliston shahar 17-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi	207262749	66	4,5	2,0	0,5	0,0	1,0	0,5	0,5	0,0	0,0	0,0
34	Guliston shahar 15-sonli davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	207310030	63	4,0	2,0	0,5	0,5	0,5	0,5	0,0	0,0	0,0	0,0
35	Sirdaryo viloyati guliston shahar 18-sonli umumiy o`rta ta`lim muassasasi	308147640	82	5,5	2,5	0,5	0,5	1,0	0,5	0,5	0,0	0,0	0,0
36	Guliston tibbiyot klasteri	308655674	635	7,5	0,0	0,0	3,5	0,0	0,0	1,5	2,5	0,0	0,0
37	Guliston davlat pedagogika instituti	309727757	264	7,0	0,0	0,0	1,0	2,5	0,0	1,5	1,0	1,0	0,0
38	Guliston shahar 8-sonli davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	207033992	28	2,0	1,0	0,0	0,0	0,5	0,5	0,0	0,0	0,0	0,0
39	Guliston shahar 10-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi	201588654	59	4,0	2,0	0,5	0,0	0,5	0,5	0,5	0,0	0,0	0,0
40	13-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi	206869958	55	3,5	2,0	0,5	0,0	0,5	0,5	0,0	0,0	0,0	0,0
	Jami:		**4628**	**148**	**45,5**	**16,5**	**12**	**21,5**	**9,5**	**13,5**	**14,5**	**13**	**2,0**

Guliston shahar Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi boshlig'i: **A.G`oybnazarov**